

## XUSUSIY BANK KAPITALLASHUVINING OSHIRISH MASALALARI

*Abdullayeva Aziza Murot qizi  
Toshkent Moliya Instituti Bank hisobi audit  
kafedrasi o'qtuvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada xususiy bank kapitallashuvining oshirish masalalari, bank sektorini rivojlantirishda tijorat banklari tomonidan o‘z faoliyatlarini yanada taraqqiy etishlarini ta’minlash, bank aktivlari ko‘rinishi dinamikasi haqida batafsil bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** xususiy banklar, kapitallashuv, bank sektori, inflyatsiya, aksionerlik.

### **Kirish:**

Iqtisodiyotning lokomotivi sanalgan bank sektorini takomillashtirishda tijorat banklari tarafidan o‘z faoliyatlarini yanada taraqqiy etishlarini ta’minlash va faoliyat ko‘lamini kengaytirishlari uchun doimiy tarzda resurslarga ehtiyoj sezadilar. Sog‘lom raqobat sharoitida esa har qanday resurslarni tekinga jalb etish va undan evazsiz foydalanish imkoniyatlari cheklangan. Iqtisodiyotni erkinlashtirish davomida tijorat banklari resurslari va ularning manbalari muhim ahamiyat kasb etadi. Tijorat banklarining resurs bazasi, makroiqtisodiy omil sifatida ularning likvidligini ta’minlashga va to‘lov qobiliyatini mustahkamlashga bevosita ta’sir qiladi.

### **Adabiyotlar tahlili va metodologiya:**

Banklar doimiy va samarali faoliyat yuritmasa uning mijozlari o‘z faoliyatini uzlusizligini ta’minlashning iloji bo‘lmay qoladi. Mijozlar faoliyati ko‘p tomondan banklarning likvidliligi, to‘lov qobiliyati va samarali faoliyat yuritishiga uzviy bog‘liqdir. Bank faoliyatini tahlil etish uchun bank faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan barcha iqtisodiy jarayonlarni har tomonlama chuqur his qilmoq, tushunmoq zarur bo‘ladi. Buning uchun esa eng avval, bankning mohiyati, amalga oshiradigan vazifalari, mazkur vazifalarni bajarish asoslari, usullari, ya’ni butun bank faoliyatiga aloqador jarayonlarni his qilmoq lozim.

Bank faoliyatini yuritish uchun zarur bo‘lgan mablag‘lar va ularning manbalari, o‘z mablag‘lari, shuningdek majburiyatlar tarkibi, ular o‘rtasidagi mutanosiblikni ta’minlash masalalari, ushu mablag‘larni samarali yo‘naltirish, bankning likvidliligi, to‘lov qobiliyatini ta’minlash asoslari kabilar chuqur o‘rganilmog‘i kerak. Yuqorida bildirilgan fikrlarni jamlashtirgan holda, Bank faoliyati tahlili fanining predmeti, bank faoliyatini o‘zida aks ettiruvchi iqtisodiy jarayonlarni uzlusiz tarzda o‘rganishdan iboratdir. Bank faoliyati tahlili fani banklarda muomaladagi bo‘sh mablag‘larni o‘ziga jalb etish, o‘z mablag‘larini to‘plash va boshqarish, jamlangan passivlarning aktiv

operatsiyalarga joylashtirish, aktivlarni boshqarish daromad va xarajatlarni rivojlantirish, shuningdek mijozlarga bank xizmatlarini ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy jarayonlarni o'rganadi.

**Natijalar:**

Bank aktivlari ko'rinishi dinamikasi, samaradorligi kabi muammolar doimiy tarzda ravishda tahlil qilinmog'i lozim. Shu bilan birga aktivlarning likvidliligi, daromadliligi va rikslilik darajasi tahlili faoliyat muvaffaqiyatining garovi hisoblanadi. Bank aktivlarining uning passivlari bilan mutanosibligini ta'minlash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham bank aktivlari uning xodimlari, auditorlar va markaziy bank tarafidan o'rganilib, tahlil qilib borishning davr talabi bo'lib qoladi. Tashqi moliyaviy tahlil kompleks tarzda amalga oshiriladi, lekin u tahlil qiluvchining niyatiga muvofiq farqlanadi.

Aksionerlik bankida asosiy rolni aksionerlar qiziqishlarini jamlaydigan Bank Kengashi egallaydi: ipoteka banklarida esa mol-mulkni baholash spetsifikasi muhimrok rolga ega; investitsya banklarida esa loyihalarni moliyalashtirish bo'limlari vujudga keladi; trast banklarida esa turli toifadagi mijozlarning mol-mulkini boshqarish bo'limlari va boshqalar.

**Muhokama:**

Prezidentimiz tarafidan ilgari surilgan davlatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish, shuningdek fuqarolik jamiyatini takomillashtirish kontseptsiyada moliya-bank tizimini yanada takomillashtirish, xususiy banklar hamda lizing, sug'urta kompaniyalari, mikrokredit tashkilotlari, shuningdek boshqa shu kabi xususiy mulkchilikka asoslangan moliyaviy tashkilotlar faoliyatining huquqiy asoslarini yaratish yordamida ushbu tizimda xususiy mulkka asoslangan kapitalning ishtirokini oshirishni ta'minlash yuqori ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlangan. Ushbu chora-tadbirlar bank va boshqa moliyaviy xizmatlar ko'rsatish sifatini oshirish va raqobatni kuchaytirish, yuqori xalqaro standartlarga javob beradigan bozor infrastrukturasini barpo qilishga ko'maklashadi.

Xalqaro bank amaliyoti tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, bozor munosabatlari sharoitida tijorat banklari kapitalining samaradorligini va uning yetarliligini ta'minlamasdan turib, banklarning to'lov qobiliyatini mustahkamlash va aholining bank tizimiga bo'lgan ishonchini qozonish murakkab vazifalardan biri sanaladi. Darhaqiqat, bank kapitalining mavjudligi bankni tashkil topishi va faoliyat ko'rsatishi uchun eng muhim zaruratlardan biridir.

**Xulosa:**

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, tijorat banklari kapitalining minimal miqdori bank aktiv operatsiyalari hajmining ortishi va iqtisodiyotda sodir bo'layotgan infliyatsiyaning salbiy ta'siri sababli oshib boradi. Xalqaro bank amaliyotida tijorat banklari kapitalining yetarliligini hisoblashda turli xil metodikalaridan foydalanadi.

Bank kapitali yetarliligining u yoki bu metodika bilan hisoblanishi uning yetarlilikiga qo‘yilgan talablarning bajarilishi tomondan har xil natijalarni beradi.

**Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Elmirzaev S.E. Dividend siyosati tashkiliy xususiyatlari va takomillashtirish masalalari. // Xalqaro moliya va hisob. №2. 2016.
2. Kunarov R.R. va Bo‘riev J.P. Tijorat banklari dividend siyosati xususiyatlari. // Xalqaro moliya va hisob. №4. 2020.
3. Sherqo‘zieva N. Aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy boshqaruv tizimida dividend siyosatining o‘rni. // Xalqaro moliya va hisob. №3. 2019.
4. Abdullayeva Sh.Z. Bank ishi. T.: Moliya. 2017.
5. Omonov A.A. Tijorat banklarining resurslarini samarali boshqarish masalalari. – Toshkent, 2008.